



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*davlat va huquq asoslari fani*  
*o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun*  
*“YOSH HUQUQSHUNOS”*

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

## To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<b><i>Nº</i></b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
<b><i>1.</i></b>							
<b><i>2.</i></b>							
<b><i>3.</i></b>							
<b><i>4.</i></b>							
<b><i>5.</i></b>							
<b><i>6.</i></b>							
<b><i>7.</i></b>							
<b><i>8.</i></b>							
<b><i>9.</i></b>							
<b><i>10.</i></b>							
<b><i>11.</i></b>							
<b><i>12.</i></b>							
<b><i>13.</i></b>							
<b><i>14.</i></b>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan Davlat huquq asoslari fanidan  
 “Yosh huquqshunos” nomli to‘garagining

**ISH REJASI**

<i>№</i>	<i>Mavzu</i>	<i>Soat</i>	<i>Sana</i>	<i>Izoh</i>
1	<i>Ahloq va huquq</i>			
2	<i>Huquqiy normalar belgilari,tuzilishi va turlari</i>			
3	<i>Voyaga yetmaganlarning huquqlari</i>			
4	<i>Shaxsiy huquq va erkinliklar</i>			
5	<i>Konstitutsiyaga oid savollar</i>			
6	<i>Harakatlar strategiyasi</i>			
7	<i>Konstitutsiya-Davlatning asosiy qonuni</i>			
8	<i>Iste'molchining huquqlari</i>			
9	<i>Mehnat huquqi asoslari</i>			
10	<i>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi</i>			
11	<i>O‘zbekistonda qabul qilingan ayrim qonunlar</i>			
12	<i>Ma'muriy huquq asoslari</i>			
13	<i>Fuqarolik huquqi asoslari</i>			
14	<i>Mustahkamlash</i>			
15	<i>Oila kodeksi</i>			
16	<i>Jinoyat kodeksi</i>			
17	<i>Ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeks</i>			
18	<i>Fuqarolik kodeksi</i>			
19	<i>Mehnat kodeksi</i>			
20	<i>Takrorlash</i>			
21	<i>Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi</i>			
22	<i>Huquqbuzarlik</i>			
23	<i>Huquqiy javobgarlik</i>			
24	<i>Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari</i>			
25	<i>Voyaga yetmaganlarning huquqlari,burchlari</i>			
26	<i>Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari</i>			
27	<i>Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari</i>			
28	<i>Inson huquq va erkinliklari kafolatlari</i>			
29	<i>Siyosiy partiyalar faoliyati</i>			
30	<i>O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari</i>			
31	<i>Fuqarolik jamiyati</i>			
32	<i>Inson huquqlari turlari</i>			
33	<i>Bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslari</i>			
34	<i>Ishga qabul qilish vaqtida talab qilinadigan hujjatlar</i>			

## 1-Mavzu: Axloq va huquq

### Reja:

1.Axloq me’yorlari va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni.

2.Huquqning vujudga kelishi.

3.Huquqning funksiyasi.

### Mashg‘ulotning maqsadi:

**Ta’limiy maqsad:** O‘quvchilarga axloq va huquq asoslari haqida bilimlar berish

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilar ong- tafakkurida axloq va huquq asoslari bugungi kundagi ahamiyatini qiyoslash, yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. O‘quvchilarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usini qonunlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalashda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Axloq va huquq asoslari haqida mustaqil fikrlashga o‘rgatish

1.Siz nima deb o‘ylaysiz, insonning eng birinchi huquqi nima?

2."Ta'lim olish ", "malakali tibbiy yordam olish ", "dam olish " huquqi de ganda nimalarni tushimasiz?

3."Mustaqillik " so‘zini qanday tushunish mumkin?

4.Yuqoridagi rasmlarda qanday o zaro bog 'liqlik bar?

5.Mustaqillik tufayli qanday huquqlarga ega bo 'Idik ?

6.Bu huquqlarning amalga oshirilishini kim kafolatlaydi?

7.Huquqiy savodsizlik" deganda nimani tushunasiz?

8.Qonunlarni bilmasligingiz uchun afsnslangan paytlaringiz bo 'Igannti?

9.O‘z huquqingizni bilishingiz qo‘l kelgan vaziyatga misol keltiring.

### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:

1.Maktabingizda qanday asosiy qoidalarga rioya qilishingiz short?

2.Bu qoidalar hammaga majburiymi yoki o'quvchi va o'qituvchilarga alohida qoidalar mavjudmi? Oilangizda qanday qoidalar mavjud?

3.Oilangizda rioya qilinadigan qoidalar qanday qilib paydo bo‘lgan deb o'ylaysiz?

4.Do‘stlaringiz bilan munosabatingizda ham muayyan qoidalarga amal qilasizmi? Nima uchun?

5.Yuqoridagi misollarning qaysi birida sizdan ko‘proq mas'uliyat talab qilinadi? Nima uchun?

6.Yuqorida alalغان qoidalarning bajarilishini nazorat qilish kimning zimmasida deb o'ylaysiz?

7.Shu qoidalarni buzmaganda holda maktabda, oilada va do‘stlaringiz orasida qanday huquqlarga ega ekanligingizni sanab bering.

8.Bu huquqlaringizni nima uchun aynan "huquq" deb atalishi to‘g‘risida o'ylab ko'rganmisiz? Fikringizni asoslab bering.

Davlat paydo bolishi bilan bir vaqtda huquq ham paydo bo‘ladi. Huquq dastlab axloqiy qarashlar, qadriyatlar negizida vujudga kelgan. Keyinchalik esa **huquqiy davlat tomonidan** o‘rnatilgan yoki ma'qullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalarining tizimiga aylangan.

**Huquq**-davlat tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalarining tizimi.

"Huquq" atamasi ikki obyektiv hamda subyektiv huquq ma'nosida qo‘llaniladi.

**Obyektiv huquq**- huquq normalarining yig‘indisi.

**Subyektiv -huquq** esa ma'lum bir shaxs yoki guruhga tegishli bo‘lgan huquq.

Misol uchun kimningdir uy-joyga bo‘lgan yoki biror-bir mulkka nisbatan bo‘lgan huquqi. Subyektiv huquq obyektiv huquqsiz mavjud bo‘lmaydi. Huquqning o‘zi esa davlat bilan uzviy bog‘liqdir. Ular bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Huquq quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tartibga solish
- qo‘riqlash
- tarbiyalash.
- Bu esa o‘z navbatida huquq funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi qoidalar tizimi **axloq** hisoblanadi. O‘zbekiston hududida ming yillar davomida shakllangan milliy axloq normalari milliy huquq tizimimizning

shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan, shuningdek O'zbekistonning mustaqillik yillarida qabul qilgan huquq normalari.

### **Axloq-kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalar yig'indisi.**

"Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi".

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 64- modda.**

Aholi aksariyat qismining qarashlari va tushunchalari ham axloq ham huquqda aks etadi.

Axloq va huquq o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardir:

- huquq davlat tomonidan belgilangan bo'ladi, axloq (ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik kabilar) esa davlatning yordamisiz o'z- o'zidan shakllanadi;
- huquq davlat irodasini, axloq esa jamiyat a'zolarining fikri, dunyoqarashi hamda insoniy fazilat va tushunchalarini aks ettiradi;
- huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoatchilik fikri orqali qaror topadi;
- axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do'stlik, o'rtoqlik va hatto muhabbatni ham) tartibga soladi. Huquq esa muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan;
- huquqdaxatti-harakat yoki harakatsizlikni baholash mezonini "qonuniy-noqonuniy", axloqda esa "yaxshi-yomon"dan iborat;
- huquq hujjatlarda aniq ko'rinishga ega.

Huquq va axloq bir yo'nalishda harakat qiladi. Ba'zan huquq jamiyatning eskirgan axloq normalaridan xalos bo'lishiga ko'maklashadi (masalan, xun olish asosida shakllanadi. Shu bilan birga, huquq axloq ("ezgulik" va "adolat" tushunchalari) asosida shakllanadi. Ko'pincha, sud "sha'n va qadr-qimmatni haqoratlash", qo'pollik" va boshqa shu kabi tushunchalarni to'g'ri tushunish maqsadida axloq qoidalariga murojaat qiladi.

Axloq bilan huquq alohida tushunchalar bo'lsa-da, ular umumiy xususiyatlarga ham ega.

1. Huquq va axloq tushunchalarining ko'pincha yonma-yon kelishiga sabab nimada deb o'ylaysiz?

2. Huquq qay tariqa paydo bo'lgan?

3. Obyektiv huquq nima? Misol keltiring

4. Subyektiv huquq nima? Misol keltiring.

5. Huquq funksiyalarini sanab bering.

6. Huquqning tartibga solish funksiyasining mohiyatini aytib bering.

7. Huquqning qo'riqlash funksiyasining mohiyatini aytib bering.

8. Huquqning tarbiyalash funksiyasining mohiyatini tushuntiring.

9. Axloq alohida inson uchun zarurroqmi yoki jamiyat uchunmi?

10. Axloq bilan huquq tushunchalarining bir-biri bilan qanday bog'liqligi bor deb o'ylaysiz?

11. Agar bu ikki tushuncha o'rtasida ziddiyat paydo bo'lsa, unda nima o'zgartiriladi - huquqmi yoki axloqmi? Nima uchun?

12. Axloq va huquq o'rtasidagi farqlarni sanab berin

Dars mashg'ulotida yaxshi qatnashgan o'quvchilar ballarini e'lon qilish, rag'batlantirish.

**Uyga vazifa:** Mavzuni o'qib mustaqil ish tayyorlab kelish.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil



## 2-Mavzu: Huquqiy normalar belgilari, tuzilishi va turlari

### Reja:

#### 1.Huquqiy norma tushunchasi

#### 2.Huquqiy normalar

#### Mashg‘ulotning maqsadi:

**Ta‘limiy maqsad:** O‘quvchilarga huquqiy normalar mavzusi haqida bilimlar berish

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilar ong- tafakkurida huquqiy normalarning bugungi kundagi ahamiyatini qiyoslash, yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. O‘quvchilarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usini qonunlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalashda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Huquqiy normalar tushunchasi haqida mustaqil fikrlashga o‘rgatish

- 1.Huquq va axloq tushunchalarining ko‘pincha yonma-yon kelishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?
- 2.Huquq qay tariqa paydo bo‘lgan?
- 3.Obyektiv huquq nima? Misol keltiring
- 4.Subyektiv huquq nima? Misol keltiring.
- 5.Huquq funksiyalarini sanab bering.
- 6.Huquqning tartibga solish funksiyasining mohiyatini aytib bering.
- 7.Huquqning qo‘riqlash funksiyasining mohiyatini aytib bering.
- 8.Huquqning tarbiyalash funksiyasining mohiyatini tushuntiring.
- 9.Axloq alohida inson uchun zarurroqmi yoki jamiyat uchunmi?
- 10Axloq bilan huquq tushunchalarining bir-biri bilan qanday bog‘liqligi bor deb o‘ylaysiz?
- 11.Agar bu ikki tushuncha o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lsa, unda nima o‘zgartiriladi - huquqmi yoki axloqmi? Nima uchun?
- 12.Axloq va huquq o‘rtasidagi farqlarni sanab bering

Tohirov boshchiligidagi bankirlar bitta emas, o‘nta emas, 686 ta fermer xo‘jaligiga ajratilgan kredit mablag‘larining 303 mln. so‘mini o‘z vaqtida bermasdan, ularning manfaatiga jiddiy zararyetkazganligi uchun bugun tergov oldida javob bermoqdalar...

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- 1.Parchalarni diqqat bilan o‘qib chiqing.
- 2.Nima sababdan "Rug‘batbcmk" mng faqatgina bush hisobchisi javobgarlikka tortilgan, "A'lobank"ning esa rahbari, hatto sheriklari bilan birgalikda javob gar likka tortilgan deb o'ylaysiz?
- 3.Siz ma'muriy javobgarlik va jinoiy javobgarlik tushunchalari bilan tanishmisiz? Bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.
- 4.Nima sababdan "Rag‘batbank" xodimi ma'muriy javobgarlikka tortilgan, "Baxtbank" xodimlari esa jinoiy javobgarlikka tortilganlar deb o'ylaysiz?
- 5."Aloqabank" xodimlarining javobgarliklari qanday me'yorlar bilan belgilanadi deb o'ylaysiz?
- 6.2-parchadagi 37 ta qonunbuzarliklar nimalarga asoslanib jinoyat deb topilganligini tafakkur qilishga harakat qiling.
- 7.Shaxsning yoki biron bir tashkilotning huquqi, uning xatti-harakatlarining qay darajada qonunga muvofiq ekanligini qanday qilib aniqlasa bo‘ladi? Buning uchun nimalar kerak deb o'ylaysiz?
- 8."Huquq me'yorlari"borasida qanday ta'rif bergan bo‘lar edingiz?

**Huquq normasi**-bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki elementidir. Huquqiy normalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan hdgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi davlat tomonidan o‘rnatilgan, bajarilishi jamiyatning barcha a‘zolari uchun umummajburiy bolgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.

Davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidasi —**huquq normasi** deyiladi.

**Huquq tizimi**-bu jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchilikda, o‘zaro uzviy aloqadoqlikda joylanishidir.

Huquq normasining asosiy vazifasi - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdir. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan.

Huquqiy norma tuzilishiga ko'ra bir-biri bilan bog'liq boigan quyidagi uch tarkibiy qism (element)dan: gipoteza, dispozitsiya, sanksiyalardan taslikil loishi mumkin.

**Gipotezada** norma harakatga kelishi uchun zarur boigan shart-sharoitlar bayon etiladi.

**Dispozitsiyada** xulq-atvor qoidalarining o'zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi.

"Norma" so'zi lotinchadan tarjima qilinganda "*qoida*", "*namuna*" ma'nosini anglatadi.

**Gipoteza**- yunoncha so'z bo'lib, *faraz qilish, fikr yuritish* degan ma'noni anglatadi.

**Dispozitsiya** - lotin tilidan olingan bo'lib, *bayon qilish* degan ma'noni anglatadi.

**SANKSIYA** - lotin tilidan olingan bo'lib, *majburiy chora* degan ma'noni anglatadi.

**SANKSIYADA** huquq normalari bajarilmagani uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasi bayon etiladi.

**Jinoyat kodeksining 203- moddasini misol qilib olaylik:**"Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik barobciridan yuz barobarigacha miqdorda jarima yoki itch yilgachci axloq tuzatish ishlari, yoxud olti oygacha qamoq, yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

**Yuqoridagi moddaning**"Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish"**qismi gipotezaga misol bo'la oladi.**"Og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa"qismi **dispozitsiya**"eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan vuz barobarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi"**qismi esa sanksiyaga misol bo'la oladi.**

Ayrim qonun hujjatlarida huquq normasi bu uch tarkibiy elementdan emas, balki 2 ta tarkibiy elementdan tashkil topgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, har qanday mamlakat Konstitutsiyasidagi moddalar asosan gipoteza va dispozitsiyadan iborat bo'lib, sanksiya elementi deyarli ko'zda tutilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6- moddasini oladigan bo'lsak, u yerda, "O'zbekiston Respublikasining poytaxti - Toshkent shahri" deb e'tirof etilgan. Bu modda huquq normasiga misol bo'la oladi va bu modda faqatgina dispozitsiyadan iborat.

1.Huquq normasi tushunchasini ta'riflab bering.

2.Huquq normasi zarurligini asoslab bering. Bunda agar huquq normasi mavjud bo'lmasa jamiyat qanday qiyinchiliklarga duchor kelishi mumkinligiga e'tibor bering.

3.Huquq normasining asosiy vazifasi nimadan iborat?

4.Huquqiy normaning tarkibiy elementlarini sanab bering.

5.Gipoteza nima? Misol keltiring.

6.Dispozitsiya nima? Misol keltiring.

7.Sanksiya nima? Misol keltiring.

8.Har qanday huquqiy normada ham bu uch element mavjudmi? Misol keltiring.

9.Huquq normasining qanday belgilari mavjud?

Dars mashg'ulotida yaxshi qatnashgan o'quvchilar ballarini e'lon qilish, rag'batlantirish.

**Uyga vazifa:**Mavzuni o'qib, mavzu yuzasidan referat tayyorlab kelish.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

*vab-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Huquq fanidan 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

**Narxi: 15 ming so'm**


Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**



**UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**